

## ALOQA XIZMATLARINING BUGUNGI XOALTI

**X.X.Ergashev SamISI, i.f.n.**  
**U.A.Shirinov – SamISI, PhD.**  
**D.Hamidov – SamISI, magistr**

**Annotatsiya:** Maqolada aloqa xizmatlarining bugungi xolati, ularda hisob yuritishdagi muammolar haqida soʻz yuritilgan.

**Kalit soʻzlar:** aloqa, xizmat, buxgalteriya hisobi, daromad, mobil aloqa.

**Аннотация:** В статье говорится о современном состоянии услуг связи, проблемах в бухгалтерском учете.

**Ключевые слова:** связь, услуга, учет, доход, мобильная связь.

**Abstract:** The article talks about the current state of communication services, the problems in accounting.

**Key words:** communication, service, accounting, income, mobile communication.

Jahonda aloqa sohasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim “lokomotivi” sifatida tan olingan. Manbalarga koʻra, “Yevropa Kengashiga kiruvchi davlatlarda mehnat unumdorligini oshishidan olingan 50 % samara aloqa hisobidan erishiladi; internet xizmatlariga investisiyalarni 10% ga oshishi yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni 1-2%ga oshishiga olib keladi; 2020 yilning boshiga dunyo miqyosida 4,5 milliarddan ortiq odamlar internetdan foydalanmoqda, 3,8 milliarddan ortiq odamlar ijtimoiy tarmoqqa kirmoqda, 5,19 milliarddan ortiq kishilar mobil telefonga ega; internetga murojaatlarning 53 foizi mobil telefonlar, 44 foizi shaxsiy kompyuterlar orqali amalga oshirilmoqda; 64% britaniyaliklar savdo sotiqqlarni mobil aloqa orqali onlayn rejimida amalga oshiradilar”<sup>1</sup>. Ushbu holatdan koʻrinib turibdiki, bugungi kunda dunyoda aloqa xizmatlarining segmentar hisobi va auditni takomillashtirish oʻta dolzarb masala hisoblanadi.

Yuqoridagi jadval maʼlumotlaridan koʻrishimiz mumkinki 2013 yilda aloqa xizmatlari **2039,9 mlrd.** soʻm boʻlgan boʻlsa 2020 yilga kelib **8812,2 mlrd.** soʻmni tashkil etgan. Bu esa 2020 yilga kelib aloqa xizmatlari 4 barobar oshganligini koʻrsatadi.

2019-2020 yillarda telekommunikasiya infratuzilmasini rivojlantirish yoʻnalishida ham bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xalqaro internet tarmogʻiga ulanishning umumiy oʻtkazuvchanlik qobiliyati 1200 Gbit/s.ni tashkil etib, kommutasiya markazi orqali 750 Gbit/s tezlikda Internet tarmogʻiga chiqish imkoniyati yaratildi va tarmoqning yuklanish darajasi 76,6 foizni tashkil etdi.

---

<sup>1</sup>ИКТ-компетенции как фактор социально-экономического развития России / Под ред. Ю. Е. Хохлова, С. Б. Шапошника. М.: Институт развития информационного общества, 2012. - 74 с.; Услуги в современной экономике. М.: ИМЭМО РАН, 2010. 42 с.; ICTDataandStatistics. InternationalTelecommunicationUnion [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.itu.int/ITU-D/ict/statistics/>; UnctadStat – StatisticalDatabase [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://unctadstat.unctad.org/ReportFolders/reportFolders.aspx>; <https://www.web-canape.ru/business/internet-2020-globalnaya-statistika-i-trendy/>

Aloqa xizmatlari sohasi iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan hamda boshqa tarmoqlardan turli jihatlari bo'yicha farq qiladigan tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi. Ushbu o'ziga xos xususiyatlar hamda farqli jihatlar aloqa xizmati turlarining mazmun va mohiyatida, ularni ko'rsatish texnikasi va texnologiyasida, yaratilayotgan mahsulot turlarida, bu mahsulotlarni sotishdan olinadigan daromadni tan olishning o'ziga xosligida, ularni tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilishida, ko'rsatilayotgan xizmatlarga qilinayotgan xarajatlar tarkibida, ular tannarxini shakllantirishda, hisob ma'lumotlarini tegishli schyotlarda va hisobotning tegishli moddalarida aks ettirilishida, buyurtmachilar bilan hisoblashishlarda, soha subyektlarini soliqqa tortish bo'yicha davlat siyosatining o'ziga xosligi va boshqa tomonlarida yorqin namoyon bo'ladi.


## Телекоммуникация инфраструктурасынинг ҳолати

2

### Халқаро Интернет канали ўтказувчанлиги




### Халқаро Интернет канали нархининг ўзгариши динамикаси




Интернет тармоғида миллий контентни янада ривожлантириш мақсадида "Uz-IX" пиринг тармоғи лойиҳаси амалга оширилди. Натижادا барча оператор ва провайдерлар учун Интернет тармоғи миллий сегментида трафик алмашинуви бўйича пиринг тармоғидан республика миқёсида фойдаланиш имконияти яратилди.

36 600 км  
Оптик толали алоқа линиялари умумий узунлиги  
685 дан зиёд  
Wi-Fi нуқталар

Мобил алоқа база станциялари сони (минг)



Кенг полосали тармоқлар ҳолати (минг порт)



96%

Мобил алоқа қамрови



70%

Мобил алоқанинг кенг полосали қамрови



23,8 млн.

Мобил алоқадан фойдаланувчилар сони



22 млн.

Интернет хизматидан фойдаланувчилар сони



19 млн.

мобил Интернет фойдаланувчилари сони



## 1 – rasm. O'zbekiston Respublikasi aloqa xizmatlarining 2019 yilga ko'rastkichlari.<sup>2</sup>

Ushbu va boshqa jihatlardagi xususiyatlar hamda farqli jihatlar, bir tomondan, aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi subyektlarni o'ziga xos hisob birliklari ekanligidan, ikkinchi tomondan, ushbu subyektlarda soha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiruvchi o'ziga xos buxgalteriya hisobi tizimi mavjudligidan ham darak beradi. Respublikamizda aloqa xizmatlari sohasini rivojlantirishning ustuvorligi mazkur soha subyektlarida boshqaruvning muhim dastagi bo'lgan buxgalteriya hisobini ham doimiy ravishda takomillashtirishni, undagi mavjud

<sup>2</sup> <https://mitc.uz/uz/pages/communication>

muammolarni chuqur tadqiq etishni, shu asosda ularni hal qilish yo'llarini ilmiy asoslashni obyektiv zarurat qilib qo'yadi.

Ta'kidlash joizki, aloqa xizmatlari sohasi subyektlarida buxgalteriya hisobining nazariy, metodologik va tashkiliy muammolari respublikamizda yetarlicha tadqiq etilmagan, ular davriy adabiyotlarda ham yetarlicha yoritilmagan. Aloqa xizmatlari sohasi subyektlarida buxgalteriya hisobining hozirgi holatini amaliy jihatdan o'rganish ularda o'z yechimini kutayotgan qator dolzarb muammolar borligini ko'rsatmoqda.

Eng muhim va dolzarb muammolardan biri bo'lib aloqa xizmatlarining hisob obyektlari sifatidagi yaxlit tasnifiy asoslarini yaratish hisoblanadi. Hozirgi paytda aloqa xizmatlarining hisob obyektlari sifatidagi tasnifiy asoslari respublikamizda amalda bo'lgan buxgalteriya hisobiga oid me'yoriy hujjatlarda belgilanmagan. Ushbu xizmatlarining hisob obyektlari sifatidagi tasnifiy asoslari hamda ular hisobini yuritish tartiblari buxgalteriya hisobiga oid adabiyotlarda ham yetarlicha ochib berilmagan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Sindarkulovna, Karshiboyeva Shoir. "Aloqa xizmatlari ko'rsatish tizimining mamlakat yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish." *PEDAGOGS jurnali* 33.2 (2023): 37-39.
2. Nosirov B. Mintaqadagi qishloq aholisiga aloqa va axborot xizmatlari ko'rsatishni ekonometrik modellashtirishni indikativ rejalashtirish //International Scientific and Practical Conference on Algorithms and Current Problems of Programming. – 2023.
3. Ilhomjon o'g'li T. K. et al. Telekommunikatsiya tarmoqlarini boshqarish va jahon elektraloqa siyosati //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 3. – C. 87-92.
4. Oblokulovich K. S., Shuxratovna M. S. Samarqand viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida xizmatlar sohasining roli va rivojlanish holati //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 23. – №. 6. – С. 52-59.
5. Alieva, G. I. "Xizmatlar sohasini raqamli iqtisodiyot sharoitida rivojlantirish imkoniyatlari." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.3 (2023): 503-509.
6. Jamshidbek To'xtasin o'g' U. et al. Boshqaruv texnologiyalarining rivojlanish evolyutsiyasi //models and methods for increasing the efficiency of innovative research. – 2022. – т. 2. – №. 18. – с. 57-61.